



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**XALQARO PENSIYA TIZIMI MODELLARI VA ULARNING MINTAQAVIY
TAMOYILLARI**

**МОДЕЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕНСИОННЫХ СИСТЕМ И ИХ РЕГИОНАЛЬНЫЕ
ПРИНЦИПЫ**

**INTERNATIONAL PENSION SYSTEM MODELS AND THEIR REGIONAL
PRINCIPLES**

Jumabayeva Kumush Botir qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda pensiya tizimining xalqaro modellari va ularning mintaqaviy xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida pensiya tizimlari demografik o‘zgarishlar, iqtisodiy globalizatsiya va mehnat bozoridagi transformatsiyalar ta’sirida sezilarli darajada yangilanib bormoqda. Aholining qarish sur’atlarining ortishi hamda tug‘ilish darajasining pasayishi ko‘plab davlatlarda mavjud pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligiga tahdid solmoqda. Shu sababli, turli mintaqalarda pensiya ta’minotini tashkil etishning samarali modellari shakllanib, ular o‘ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar asosida rivojlanmoqda. Shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi pensiya tizimi va uni takomillashtirish zarurati ham tahlil qilinadi. Mamlakatda asosan taqsimlovchi model amal qilayotgan bo‘lib, uni diversifikatsiya qilish va zamonaviy xalqaro tajriba asosida takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, jamg‘arma elementlarini rivojlantirish, tizimning shaffofligini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali pensiya tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Pensiya tizimlarining xalqaro modellari yagona universal shaklga ega emas, balki ular mintaqaviy xususiyatlar asosida shakllanadi. Shu bois, har bir davlat o‘zining demografik va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, moslashuvchan va barqaror pensiya tizimini shakllantirishi zaruriyligi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Pensiya tizimi, pensiya, xalqaro modellar, demografik omil, minimal pensiya, pensiya ta’minoti tizimi, nodavlat pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy himoya, uch bosqichli pensiya tizimi.

Рост темпов старения населения и снижение рождаемости угрожают финансовой устойчивости существующих пенсионных систем во многих странах. стране в основном действует распределительная модель, и ее диверсификация и совершенствование на основе современного международного опыта являются актуальной задачей. В частности, эффективность пенсионной системы может быть повышена за счет развития элементов сбережений, повышения прозрачности системы и внедрения цифровых технологий. Международные модели пенсионных систем не имеют единой универсальной формы, но формируются на основе региональных особенностей. Поэтому было изучено, что каждой стране необходимо разработать гибкую и устойчивую пенсионную систему с учетом ее демографических и экономических условий. в основном действует распределительная модель, и ее диверсификация и совершенствование на основе современного международного опыта являются актуальной задачей. В частности, эффективность пенсионной системы может быть повышена за счет развития элементов сбережений, повышения прозрачности системы и внедрения цифровых технологий. Международные модели пенсионных систем не имеют единой универсальной формы, но формируются на основе региональных особенностей. Поэтому было изучено, что каждой стране необходимо разработать гибкую и устойчивую пенсионную систему с учетом ее демографических и экономических условий.

Ключевые слова: Пенсионная система, пенсия, международные модели, демографический фактор, минимальная пенсия, система пенсионного обеспечения, негосударственный пенсионный фонд, социальная защита, трехуровневая пенсионная система.

In this study, an in-depth analysis of international models of the pension system and their regional characteristics is carried out. Today, pension systems in the countries of the world are significantly updated under the influence of demographic changes, economic globalization and transformations in the labor market. The increasing rate of population aging and declining birth rates threaten the financial sustainability of existing pension systems in many countries. Therefore, effective models of pension provision have been formed in different regions, which are developing based on specific economic, social and institutional factors. The study also analyzes the current pension system of the Republic of Uzbekistan and the need to improve it. The country mainly operates a distributive model, and its diversification and improvement based on modern international experience is a pressing issue. In particular, the efficiency of the pension system can be increased by developing its elements, increasing the transparency of the system, and introducing digital technologies. International models of pension systems do not have a single universal form, but are formed based on regional characteristics. Therefore, the need for each country to develop a flexible and sustainable pension system based on its demographic and economic conditions has been studied.

Keywords: Pension system, pension, international models, demographic factor, minimum pension, pension provision system, non-state pension fund, social protection, three-tier pension system.

Bugungi globallashuv sharoitida pensiya tizimi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim institutlardan biri hisoblanadi. Aholining qarish jarayoni, demografik o'zgarishlar va mehnat bozoridagi strukturaviy siljishlar pensiya tizimlarini isloh qilishni talab qilmoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha umr davomiyligining oshishi va tug'ilish darajasining pasayishi pensiya tizimlariga jiddiy bosim o'tkazmoqda. Shu sababli davlatlar pensiya tizimlarini moliyaviy barqaror va ijtimoiy adolatli qilish maqsadida turli modellardan foydalanmoqda [1].

Zamonaviy xorijiy tajribada pensiya tizimlari odatda uch pog'onali (multi-pillar) model asosida shakllangan bo'lib, u davlat tomonidan kafolatlangan bazaviy pensiya, majburiy sug'urta tizimi va ixtiyoriy jamg'arma elementlaridan iborat. OECD tadqiqotlariga ko'ra, ushbu tizimlarning birinchi pog'onasi minimal ijtimoiy himoyani ta'minlasa, ikkinchi pog'ona daromadga bog'liq pensiyalar orqali hayot darajasini saqlashga xizmat qiladi, uchinchi pog'ona esa qo'shimcha ixtiyoriy jamg'armalarni qamrab oladi [2]. So'nggi yillarda Shvetsiya, Niderlandiya va Daniya kabi davlatlarda notional defined contribution (NDC), jamg'arma asosidagi (funded) va aralash modellarning samarali kombinatsiyasi qo'llanilmoqda. Bunday tizimlar demografik xavflarni kamaytirish, pensiya to'lovlarini iqtisodiy o'sish bilan bog'lash hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [3].

O'zbekiston Respublikasida ham pensiya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda amaldagi tizim asosan taqsimlovchi (PAYG – “avlodlar birdamligi”) modeliga asoslangan bo'lib, davlat byudjeti va ijtimoiy sug'urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi. So'nggi yillarda aholining demografik tarkibi o'zgarib borayotgani, norasmiy bandlik darajasi va iqtisodiy transformatsiya jarayonlari pensiya tizimini diversifikatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, jamg'arib boriladigan pensiya elementlarini rivojlantirish, raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ekspertlari ham zamonaviy pensiya tizimlarini uzoq muddatli prognozlash va modellashtirish orqali isloh qilish zarurligini ta'kidlab, bunday yondashuv siyosiy qarorlar samaradorligini oshirishini qayd etadi [4].

Umuman olganda, pensiya tizimlarining xalqaro modellari mintaqaviy xususiyatlarga qarab shakllanadi va ularning rivojlanishi iqtisodiy daraja, demografik holat hamda institutsional muhit

bilan chambarchas bog‘liq. Yevropa mamlakatlarida ko‘proq ijtimoiy yo‘naltirilgan taqsimlovchi tizim ustun bo‘lsa, Shimoliy Yevropa davlatlarida aralash va avtomatik moslashuv mexanizmlariga ega innovatsion modellardan foydalaniladi. Lotin Amerikasi va ayrim Osiyo davlatlarida esa jamg‘arma asosidagi tizimlar keng joriy etilgan. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, “zamonaviy pensiya tizimlari barqarorligi ularning diversifikatsiyalangan tuzilmasi va risklarni taqsimlash darajasi bilan belgilanadi”. Shu bois, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yagona universal model mavjud emas, balki har bir mintaqa o‘zining demografik va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib moslashuvchan pensiya tizimini shakllantiradi. Bu esa pensiya tizimlarining mintaqaviy tamoyillar asosida o‘rganilishini ilmiy jihatdan muhim va dolzarb masalaga aylantiradi.

Tadqiqotda uch pog‘onali (multi-pillar) pensiya tizimi konsepsiyasi asosiy nazariy yondashuv sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu model davlat tomonidan kafolatlangan minimal ijtimoiy himoya, majburiy sug‘urta tizimi va ixtiyoriy jamg‘arma mexanizmlarining uyg‘unlashuviga asoslanadi. Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy yo‘naltirilgan taqsimlovchi tizimlar ustunlik qilsa, Shimoliy Yevropa davlatlarida innovatsion va avtomatik muvozanatlashuv mexanizmlariga ega aralash modellar keng qo‘llaniladi. Lotin Amerikasi va Osiyoning ayrim davlatlarida esa jamg‘arib boriladigan pensiya tizimlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur farqlar har bir mintaqaning demografik holati, iqtisodiy rivojlanish darajasi va davlat siyosati bilan bevosita bog‘liq.

Monika Queisser va Dimitri Vittas (OECD va Jahon banki ekspertlari) ko‘p pog‘onali modelni eng samarali tizimlardan biri sifatida baholaydi. Ular Shveysariya tajribasini tahlil qilib shunday deydi: “Ko‘p pog‘onali pensiya tizimi ijtimoiy himoya va moliyaviy barqarorlikni uyg‘unlashtiradi” [5]. Bu yondashuv davlat, xususiylar va ixtiyoriy sektorlarning birgalikdagi ishtirokini ta‘minlaydi.

Nicholas Barr (London School of Economics professori) pensiya tizimlarini davlat va bozor mexanizmlari integratsiyasi sifatida ko‘radi: “Pensiya tizimi nafaqat moliyaviy mexanizm, balki ijtimoiy siyosat vositasidir”. Uning fikricha, samarali tizim aholining kambag‘allikdan himoyasini va daromad barqarorligini bir vaqtda ta‘minlashi kerak.

Robert Holzmann (Jahon banki iqtisodchisi) multi-pillar modelni ilmiy asoslab quyidagicha ta‘kidlaydi: “Ko‘p pog‘onali tizim turli maqsadlarni muvozanatlashtirish imkonini beradi” [6]. Ya‘ni, kambag‘allikni kamaytirish va daromadni saqlash vazifalari bir tizimda uyg‘unlashadi.

OECD (2024) hisobotida quyidagicha xulosa beriladi: “Jamg‘arma asosidagi pensiyalar moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qiladi” [7]. Bu esa tizimning uzoq muddatli barqarorligini oshiradi.

Zamonaviy iqtisodiy modellashtirish tadqiqotlarida (OLG modeli asosida) quyidagicha fikr ilgari suriladi: “Ikki va uch pog‘onali tizimlar avlodlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydi” [8]. Bu ilmiy asos pensiya tizimlarini matematik modellashtirish orqali samaradorligini isbotlaydi.

Jahon amaliyoti pensiya tizimining avlodlar birdamligi hamda jamg‘arish tizimiga asoslangan turlari farqlanadi. “O‘zbekiston pensiya tizimi ushbu ikki tizimga asoslangan. Pensiya tizimi — ijimoiy, iqtisodiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi organizm bo‘lib, u jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo‘ljallangan” [9].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pensiya tizimlari ko‘p pog‘onali, diversifikatsiyalangan va mintaqaviy xususiyatlarga moslashgan bo‘lishi zarur. Xorijiy olimlar asosan tizimning institutsional va moliyaviy barqarorligiga urg‘u bersa, mahalliy tadqiqotchilar uni milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, pensiya tizimining xalqaro modellari yagona universal shaklga ega emas, balki har bir mintaqa o‘zining demografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib shakllanadi.

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash va statistik usullardan foydalanildi. Xalqaro pensiya modellari OECD, Jahon banki va boshqa ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Turli mintaqalardagi tizimlar demografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida solishtirildi. Shuningdek, O‘zbekiston pensiya tizimi xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil qilinib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda iqtisodiy modellashtirish va mantiqiy umumlashtirish usullaridan ham foydalanildi. Pensiya tizimlarining samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi, ijtimoiy himoya darajasi va uzoq muddatli barqarorlik ko‘rsatkichlari orqali baholandi. Olingan natijalar

asosida mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda pensiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va xulosalar shakllantirildi.

Pensiya tizimining xalqaro modellari va ularning mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda global miqyosda demografik jarayonlarning o‘zgarishi, xususan, aholining qarishi, tug‘ilish darajasining pasayishi hamda umr davomiyligining ortishi pensiya tizimlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ko‘plab mamlakatlarda mavjud pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy samaradorligini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu sababli, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va uni mintaqaviy sharoitlar bilan uyg‘unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tahliliy yondashuv shuni ko‘rsatadiki, pensiya tizimlari asosan uch asosiy modelga — taqsimlovchi (PAYG), jamg‘arib boriladigan (funded) va aralash (multi-pillar) tizimlarga bo‘linadi. Har bir model o‘zining afzallik va kamchiliklariga ega bo‘lib, ularning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, mehnat bozori holati hamda demografik tuzilmasiga bevosita bog‘liq. Xususan, rivojlangan davlatlarda ko‘p pog‘onali tizimlar keng qo‘llanilib, ular moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy himoya o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda an’anaviy taqsimlovchi tizimlar hali ham ustunlik qilmoqda.

Shuningdek, mintaqaviy omillar pensiya tizimlarining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat modeli asosida kuchli davlat ishtiroki kuzatilsa, Lotin Amerikasi davlatlarida xususiy sektor ishtirokidagi jamg‘arma tizimlari rivojlangan. Osiyo mamlakatlarida esa aralash tizimlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu farqlar har bir hududning tarixiy rivojlanishi, institutsional muhit va iqtisodiy siyosati bilan izohlanadi.

Mazkur tahliliy qismda aynan shu omillar asosida pensiya tizimlarining xalqaro modellari chuqur o‘rganilib, ularning mintaqaviy xususiyatlari solishtirma tahlil qilinadi. Natijada, eng samarali yondashuvlar aniqlanib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritib beriladi.



1-rasm. Global pensiya tizimlari modellari ulushi (%) [10]

Mazkur rasm jahon miqyosida pensiya tizimlarining tarkibiy tuzilishini ifodalaydi. Undan ko‘rinib turibdiki, an’anaviy PAYG tizimi hali ham yetakchi o‘rinni egallaydi, chunki u ko‘plab davlatlarda tarixan shakllangan va ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, aralash tizimlar ulushining yuqoriligi davlatlarning moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va demografik xavflarni kamaytirishga intilayotganini ko‘rsatadi. Jamg‘arma tizimlari esa nisbatan kamroq ulushni tashkil etsa-da, ularning ahamiyati ortib bormoqda. “Ko‘p pog‘onali pensiya tizimlari zamonaviy iqtisodiy sharoitda eng barqaror model hisoblanadi” (OECD, 2024).



2-rasm. Mintaqalar kesimida pensiya tizimlari tarkibi (%) [11]

Yuqoridagi rasm turli mintaqalarda pensiya tizimlarining shakllanishidagi farqlarni aks ettiradi. Yevropa davlatlarida ijtimoiy yo‘naltirilgan tizimlar ustun bo‘lib, ular davlat kafolatlariga asoslanadi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa xususiy sektor ishtirokidagi jamg‘arma tizimlari keng rivojlangan. Osiyo davlatlarida aralash tizimlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, bu esa iqtisodiy o‘sish va demografik o‘zgarishlar bilan bog‘liq. MDH davlatlarida, jumladan O‘zbekistonda, hali ham PAYG modeli ustun hisoblanadi. “Pensiya tizimlari mintaqaviy demografik va iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda shakllanadi”[].

Turli mamlakatlarda pensiya tizimi modellari taqqoslanishi [12]

Mamlakat	Model turi	Asosiy xususiyati
Shvetsariya	Aralash(NDC)	Avtomatik balanslash tizimi
Germaniya	PAYG	Kuchli davlat kafolati
Chili	Jamg‘arma	Xususiy fondler ustunligi
Yaponiya	Aralash	Qarish omiliga moslashgan
O‘zbekiston	PAYG	Davlat pensiyasiga asoslangan tizim

Jadvalda turli mamlakatlar pensiya tizimlarining o‘ziga xos jihatlari taqqoslangan. Undan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan davlatlar pensiya tizimlarini diversifikatsiya qilishga katta e‘tibor qaratmoqda. Masalan, Shvetsiyada avtomatik balanslash mexanizmi mavjud bo‘lib, u tizimni iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashtiradi. Germaniyada esa kuchli davlat kafolati mavjud. Chili tajribasi jamg‘arma tizimining samaradorligini ko‘rsatsa, O‘zbekistonda hali an‘anaviy PAYG tizimi ustun. “Pensiya tizimlarining diversifikatsiyasi ularning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlaydi”.

Pensiya tizimlari samaradorligi ko‘rsatkichlari [13]

Ko‘rsatkich	PAYG tizim	Jamg‘arma tizimi	Aralash tizim
Moliyaviy barqarorlik	Past	Yuqori	O‘rta-yuqori
Ijtimoiy himoya darajasi	Yuqori	O‘rta	Yuqori
Risk darajasi	Yuqori	Past	O‘rta
Moslashuvchanlik	Past	Yuqori	Yuqori

Mazkur jadval pensiya tizimlarining samaradorlik ko‘rsatkichlarini solishtirish imkonini beradi. PAYG tizimi ijtimoiy himoya jihatidan kuchli bo‘lsa-da, demografik o‘zgarishlarga juda sezgir hisoblanadi. Jamg‘arma tizimi moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi, ammo u ijtimoiy tenglikni to‘liq kafolatlamaydi. Aralash tizim esa ushbu ikki modelning afzalliklarini birlashtirib, optimal variant sifatida qaraladi. Shu sababli ko‘plab davlatlar aynan shu modelga o‘tishni maqsad qilmoqda. “Eng samarali pensiya tizimi — bu risklarni muvozanatli taqsimlay oladigan tizimdir” (Barr, 2021)

Keltirilgan diagramma va jadvallar asosida pensiya tizimlari global va mintaqaviy darajada turlicha shakllanishi, biroq umumiy tendensiya sifatida aralash modellarga o‘tish kuchayib borayotganini ko‘rish mumkin. Bu esa zamonaviy iqtisodiy sharoitda pensiya tizimining barqarorligi va samaradorligini ta‘minlashda kompleks yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar, xalqaro tajriba hamda tahliliy ma‘lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, pensiya tizimi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi strategik institutlardan biridir. Zamonaviy sharoitda pensiya tizimlarining rivojlanishi global demografik jarayonlar, xususan, aholining qarishi, tug‘ilish darajasining pasayishi va umr davomiyligining ortishi bilan bevosita bog‘liq. Ushbu omillar pensiya tizimlariga tushadigan moliyaviy yukni oshirib, ularni isloh qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida pensiya tizimlarining uch asosiy modeli — taqsimlovchi (PAYG), jamg‘arib boriladigan (funded) va aralash (multi-pillar) tizimlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. PAYG tizimi ijtimoiy himoya nuqtai nazaridan samarali bo‘lsa-da, demografik o‘zgarishlarga nisbatan sezgirligi yuqori. Jamg‘arma tizimi esa moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi, biroq u ijtimoiy tenglikni to‘liq kafolatlamaydi. Eng maqbul variant sifatida aralash model e‘tirof etilib, u risklarni taqsimlash, daromadlarni barqarorlashtirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlash imkonini beradi.

Mintaqaviy tahlillar natijasida pensiya tizimlarining shakllanishi har bir hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, demografik holati va institutsional muhitiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Yevropa mamlakatlarida kuchli davlat ishtirokiga asoslangan ijtimoiy yo‘naltirilgan tizimlar ustunlik qilsa,

Lotin Amerikasi davlatlarida xususiy sektor ishtirokidagi jamg‘arma tizimlari keng rivojlangan. Osiyo mamlakatlarida esa aralash tizimlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu esa yagona universal model mavjud emasligini, balki har bir davlat o‘z sharoitidan kelib chiqib moslashuvchan tizimni shakllantirishi zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston misolida olib qaralganda, mamlakatda amaldagi pensiya tizimi asosan PAYG modeliga asoslangan bo‘lib, u davlat byudjeti va ijtimoiy sug‘urta badallari orqali moliyalashtiriladi. Ushbu tizim ijtimoiy himoya vazifasini bajarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, demografik bosim, norasmiy bandlik darajasi va iqtisodiy transformatsiya jarayonlari uning uzoq muddatli barqarorligiga ma‘lum darajada tahdid solmoqda. Shu sababli milliy pensiya tizimini xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, O‘zbekiston pensiya tizimini bosqichma-bosqich aralash (multi-pillar) modelga o‘tkazish zarur. Bu orqali tizimning moliyaviy barqarorligini oshirish va demografik xavflarni kamaytirish mumkin. Xususan, davlat tomonidan kafolatlangan minimal pensiya saqlab qolinishi bilan birga, majburiy sug‘urta va ixtiyoriy jamg‘arma elementlarini rivojlantirish lozim.

Ikkinchidan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini kengaytirish va xususiy pensiya fondlarini rivojlantirish muhimdir. Bu aholining kelajakdagi daromadlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi hamda davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda davlat tomonidan qat‘iy nazorat va ishonchli institutsional muhitni ta‘minlash talab etiladi.

Uchinchidan, pensiya tizimini raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali pensiya hisob-kitoblarini yuritish, nazorat qilish va boshqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa fuqarolarning tizimga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, norasmiy bandlik darajasini qisqartirish orqali pensiya tizimining daromad bazasini kengaytirish lozim. Mehnat bozorini legallashtirish va sug‘urta badallarini to‘lash tizimini takomillashtirish orqali pensiya jamg‘armasining barqarorligini ta‘minlash mumkin.

Beshinchidan, pensiya yoshini bosqichma-bosqich demografik ko‘rsatkichlarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish masalasini ilmiy asosda o‘rganish lozim. Bu orqali tizimning moliyaviy barqarorligini saqlash mumkin, biroq bunda ijtimoiy omillar ham inobatga olinishi zarur.

Oltinchidan, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish muhimdir. Xususan, Shvetsiya, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalarini tahlil qilish orqali samarali mexanizmlarni joriy etish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, pensiya tizimining samaradorligi uning moslashuvchanligi, barqarorligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanishiga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda faqat kompleks, diversifikatsiyalangan va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan pensiya tizimlari barqaror rivojlanishni ta‘minlay oladi. Shu bois, O‘zbekiston uchun ham xalqaro tajribani hisobga olgan holda milliy pensiya tizimini isloh qilish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Architecture of national pension systems: Pensions at a Glance 2025 | OECD
2. Barr N., Pension Economics, 2021
3. Holzmann R., “Global Pension Systems”, 2022
4. IDB | In search of financially sustainable pension systems: three benchmark models.2025.
5. Ishay Wolf and Jose Maria Caridad y Ocerin, 17.08.2020 “The transition to a multi-pillarpension system: the inherent socio-economic anomaly”. The current issue and full text archive of this journal is available on Emerald Insight at:<https://www.emerald.com/insight/1757-6385.htm>
6. Laure Doctrinal, “Changes in Private Pensions and Income Inequality in Retirement: A Decomposition Analysis by Income Source in Nine European Countries (1986–2018)” *Work, Aging and Retirement*, Volume 10, Issue 4, October 2024, Pages 361–372, <https://doi.org/10.1093/workar/waad017>.

7. Modeling pension reform: The World Bank’s pension reform options simulation toolkit — Pension Policy International.2025.
8. OECD (2024), *Pension Markets in Focus 2024*, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/b11473d3-en>.
9. OECD Pensions Outlook, 2024
10. Pensions and insurance | OECD. 2025.
11. Queisser, Monika and Vittas, Dimitri, The Swiss Multi-Pillar Pension System: Triumph of Common Sense? (August 2000). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=632487>
12. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislar to‘plami.– T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. 10-bet.
13. World Bank Pension Systems Review, 2023

UDK: 338.486

GLOBAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM SERVICES

XALQARO TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI JAHON TRENDLARI

ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ

Khusanova Zulfiya Rakhmatullayevna

PhD in Economics, Associate Professor, Andijan State University

Yo‘ldasheva Zulfiyaxon Ulug‘bek qizi

Second-year Master’s Student,

Department of Tourism and Hospitality Management, Andijan State University

Abstract

This article is devoted to an in-depth analysis of the development trends in the modern tourism industry and the study of their theoretical aspects. The paper comprehensively examines the post-pandemic recovery process of the tourism sector, the impact of digital transformation, the implementation of sustainable development principles, and regional particularities. To enhance the accuracy of these findings, various statistical data from international organizations have been extensively utilized. In addition, the study explores the practical application of the concepts of Sustainable Tourism and Ecotourism, the impact of climate change on tourism, and the key factors driving the future development of this industry.

Keywords: international tourism, digital transformation, sustainable development, ecotourism, artificial intelligence, blockchain technology, tourism economy, tourism innovations.

Ushbu maqola zamonaviy turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish hamda ularning nazariy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada turizm sohasining pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni, raqamli transformatsiyaning ta’siri, barqaror rivojlanish tamoyillarining joriy etilishi va mintaqaviy xususiyatlar har tomonlama tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarining aniqligini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlarning turli statistik ma’lumotlaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqotda barqaror turizm va ekoturizm konsepsiyalarining amaliy qo‘llanilishi, iqlim o‘zgarishining turizmga ta’siri hamda mazkur sohaning kelgusidagi rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar yoritilgan.